

**“KOREYA RESPUBLIKASI MAMLAQATIGA OID HUQUQIY ASOSLARNING
YARATILISHI TARIXI”**

Ravshan Bahronov

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya: ushbu maqolada Koreya huquqi sohasining bosib o'tgan yo'llari va hozirgi davri tahlil qilingan. Shuningdek, unda Davlatning O'zbekiston bilan bo'lgan munosabatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: huquq, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar, mustamlaka davri, kodekslar, Konstitutsiya kafolatlari, Choson hukmronligi, bosqichlar, munosabatlar.

“ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ БАЗЫ РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ”

Равшан Баҳронов

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье анализируется прошлое и настоящее время области корейского права. Также анализируются отношения государства с Узбекистаном.

Ключевые слова: право, социально-экономическая сфера, колониальный период, кодексы, конституционные гарантии, правление Чосона, этапы, отношения.

“HISTORY OF CREATION OF THE LEGAL FRAMEWORK OF THE REPUBLIC OF KOREA”

Ravshan Bakhrongov

Master of Tashkent State Law University

Abstract: this article analyzes the past and present times of the field of Korean law. It also analyzes the state's relations with Uzbekistan

Key words: law, socio-economic sphere, colonial period, codes, constitutional guarantees, Joseon rule, stage, relations.

Huquq tizimi oyna sifatida mamlakat jamiyatini, siyosatini, iqtisodiyotini aks ettiradi. U ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga mos ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Koreyaning huquqiy tizimi 1948-yilda hukumat tashkil topgan vaqtga borib taqaladi va shu vaqt mobaynida Koreyaning barcha ijtimoiy sohalarida yorqin taraqqiyotga erishilgani kabi rivojlanib bormoqda. Choson sulolasigacha Koreyada Xitoydan kelib chiqqan Sharqiy Osiyo huquqiy tizimi mavjud bo'lsa, keyin 20-asr boshlarida Koreya G'arbiy Evropadan huquq tizimini qabul qilishga harakat qiladi, ammo yapon imperializmining rivojlanishi tufayli o'z maqsadiga erisha olmaydi, sababi yaponlar bu davrda hukumatni egallab olishga ulgurishgan edi.

1910 yilda Koreyaning Yaponiya tomonidan mustamlaka qilinishi bilan bir vaqtda zamonaviy huquq tizimi qabul qilindi. Yaponiya Prussiya, Fransiya va G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlaridan huquqiy tizimni erta qabul qilib oladi va Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib zamonaviy huquq tizimini shakllantirishga kirishdi. O'sha davr huquq tizimining maqsadi mustamlakachilik siyosati, jumladan, tabiiy boyliklarni talon-taroj qilish bo'lib, u hozirgi zamon huquq tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. 1945-yilda Yaponiya mag'lubiyatga uchragach va Amerika hukumatining 3 yilda Koreya tizimiga amerika-engliz huquq tizimi ta'sir kira boshladi. [1]

1945-yilda Yaponiya mag'lubiyatga uchragach, Amerika hukumatining 3 yilda Koreya tizimiga amerika-engliz huquq tizimi ta'sir ko'rsatdi. Koreyaning zamonaviy huquq tizimining shakllanishi boshlangan davrni konstitutsiya qabul qilingandan keyin 1948 yil deb aytish mumkin. Huquqiy tizimning shakllanish bosqichlarini ko'rib chiqsak, quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

1-bosqich - 1948-yilda hukumat o'rnatilganidan 1960-yillarning ikkinchi yarmigacha, 2-bosqich - 1960-yillarning ikkinchi yarmidan 1980-yillarning birinchi yarmigacha, 3-davr - 1980-yillarning ikkinchi yarmidan o'rtalarigacha. 1990-yillar , 4 davr - 1990-yillarning o'rtalaridan hozirgi kungacha.

Birinchi davr 1948 yildan 1960 yil oxirigacha bo'lgan davrda mustamlakachilik davri va Koreyadagi Amerika harbiy hukumati davrini o'z ichiga oladi, aynan shu davrda yangi voqelikka mos ravishda eski tizimni bekor qilish boshlandi. 1948-yil iyulda "Koreya Respublikasi Konstitutsiyasi", [2] 1953-yilda "Jinoyat huquqi" [3] 1954-yilda "Jinoyat-protsessual huquqi" va "Fuqarolik huquqi" bo'yicha normativlar qabul qilindi va e'lon qilindi. 1960 yilda va "Fuqarolik protsessual huquqi va 1963 yilda "Tijorat qonuni" qabul qilindi.

Ikkinchi davrda (60-yillarning 2-yarmidan 1980-yillarning birinchi yarmigacha) mamlakat iqtisodiyotini tiklashning misli ko'rilmagan ko'rinishi bo'ldi va huquqiy tizim hukumat rahbarligida eksport siyosatiga yo'naltirildi. Rivojlanishi va birlamchi sanoatdan ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishiga o'tishga asosiy turtki bo'ldi deb aytish mumkin. 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari, tez sanoatlashuv, urbanizatsiya va parallel ta'siri sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga keldi.

Yerdan noratsional foydalanish, ma'muriyat va kasaba uyushmalari o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar, kimyo sanoatining rivojlanishi tufayli yer bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi, ko'plab ekologik muammolar yuzaga keldi. Bu masalalarni hal etish maqsadida shaharsozlik qonunchiligi va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar ko'p marta qayta ko'rib chiqildi.

Mamlakatning uzoq yillik tendensiyasi uning dastlab avtoritar tuzumdan keyin hozirgi holatigacha bo'Igan davrni o'z ichiga oladi, albatta avtoritar tuzum davomida mamlakatda mavjud bo'Igan huquq tizimi, konstitutsiyaviy tuzum so'roq ostida bo'Igan.[4] Avtoritar rejimdan demokratik rejimga o'tish jarayoni faqat 1980-yillarning oxirlariga kelib kurtak yoya boshladi.[5]

Bu vaqtda Janubiy Koreya huquqiy tomondan yetilib ham ma'muriy, ham konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish uchun tayyor va bir necha bosqinchi boshidan o'tkazishga ulgurgan edi. Bu huquqiy tomondan o'sish davri Prezident tashabbusi bilan boshlangan edi va unda mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan Ro Dae Vu ko'plab islohotlarni amalga oshirgan edi. Undan tashqari mamlakatning axborot olami va huquqiy tizimning monitoringi bo'yicha ham dunyoda yetakchilikni saqlab qolmoqda. Misol tariqasida oladigan bo'lsak BMT tomonidan o'tkazilgan 2014-yilgi so'rvnomada Koreya Respublikasi yana bir bor elektron hukumat reytingida yetakchi o'rinni egalladi va mamlakatning informatsion, kommunikatsion qudratini ko'rsatib berdi deb aytish mumkin.

3-davr 1980-yillarning o'talarini qamrab oladi va bu davrda iqtisodiy rivojlanishning keskin sakrashidan keyin ijtimoiy-siyosiy muammolar dolzarb bo'lib qoldi. 1988 yilda Konstitutsiyaviy sud tashkil etildi, u konstitutsiya standartlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Konstitutsiyaviy sud 1988-yilda tashkil topgan kundan boshlab bugungi kunga qadar fuqarolarning Konstitutsiyada kafolatlangan asosiy huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Bundan tashqari, uchinchi davrda ma'muriy ish yuritish, ma'muriy murojaatlar to'g'risidagi va boshqa qonunlar qabul qilindi va o'zgartishlar kiritildi

1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab global inqiroz Koreyaga ham ta'sir qildi.

90-yillarning oxiridan boshlab, global tanazzul tufayli Koreya jiddiy inqirozga duch keldi, moliyaviy liberallashuv kuchayganligi sababli, hukumat ushbu muammoni hal qilish uchun moliyaviy islohotlarni qabul qildi. 2000-yil boshida boshqaruvning shaffofligini nazorat qilish va fuqarolar ishtiroki tizimini mustahkamlash maqsadida "ma'muriy tartib", "Maxfiy ma'lumotlarning saqlanishi to'g'risida", "Fuqarolarning ovoz berish to'g'risida", "Repatriatsiya to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Koreya Respublikasi hukumati Amerikada ilk bor kuzatilga global inqirozni yengish kontekstida huquqiy tizimni takomillashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirdi.

2000-yillarning boshidayoq Respublika boshqa davlatlardan ildamlab ketgan va raqamli sistematikani mamlakatda keng ko'lamda joriy etayotgan edi. Mamlakatning texnologik qurilmalar bilan ta'minoti ham bu davrda boshqa davlatlardan qaraganda ustun edi, davlatning milliy statistika bo'limining ma'lumotiga ko'ra 2001-yil 5-dekabrdagi hisobga ko'ra mamlakatdagi har 10 kishidan 6 tasida kompyuter qurilmasi mavjud edi.

O'n yil ichida davlatning informatizatsiya sohasining rivoji mamlakatning boshqa sohalarining rivojiga ham hissa qo'shdi.

4-bosqich Koreya hukumatining amaldagi huquqiy islohoti "Qonun fuqarolar uchun" shiori ostida olib borilmoqda va u quyidagi qonunlarni o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan:

- fuqarolar hayotiga noqulaylik tug'diruvchi va hozirgi sharoitga mos kelmaydigan qonunlar.
- biznes va savdoni cheklaydigan qonunlar.
- xalqaro standartlarga javob bermaydigan qonunlar.

Koreya Respublikasi huquq tizimining rivojlanishining tarixiy xususiyatlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Koreyadagi huquq tizimi muqobil davrni o'z ichiga olmagan va aksincha beqaror bosqichlarni o'z ichiga olgan. Aynan hozirgi davrgacha bosib o'tgan bosqichlari va mustamlakachilik siyosatlaridan chiqib 40 yil ichida butkul yangi davlatga aylandi. Bunga albatta mamlakatda olib borilgan oqilona siyosat va xalq orasida mavjud bo'lgan hamjihatlilikni aytish mumkin. Zero butun dunyoda bo'lganidek davlat ham o'z boshidan iqtisodiy inqiroz davrini kechirdi ammo undan oqilona tarzda bosib o'tib hozirgi dunyodagi kuchli davlatlar qatoriga qo'shildi, xusususan bir paytlar "Osiyo sherlar"i nomi bilan ulug'langan qatorga kirgan bu davlat hozirda nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki boshqa sohalarda ham dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Oxirgi vaqtarda yurtimizda sharq davlatlari bilan aloqalar har tomonlama rivojlanib

bormoqda, ayniqsa Yaponiya va Koreya davlari bilan bo‘lgan aloqalarimiz kuchayib bormoqda. Prezidentimizning sharq davlatlari bilan yo‘lga qo‘ygan o‘zaro munosabatlari o‘laroq ikki davlat o‘rtasida do‘slik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. [6]

Bugung kunda, hamkorlikning yangi yo‘nalishi sifatida O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasining nomutanosibligini tenglashtirish hamda eksport-import operatsiyalari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish maqsadida ikki davlat o‘rtasida erkin savdo to‘g‘risida bitim imzolanishi bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Umuman olganda, diplomatik aloqalar o‘rnatalganidan buyon Koreya Respublikasi barcha yo‘nalishlarda, xususan amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarda, xalqaro masalalalarda O‘zbekistonning sinalgan, ishonchli strategik hamkoriga aylandi. O‘z navbatida O‘zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy jabhalarda keng aloqalarni yo‘lga qo‘yish Koreya tomoni manfaatlariga ham to‘la mos keladi. Bundan kelib chiqqan holda tomonlar yaqin va uzoq istiqbolda ikki tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga harakat qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA VEB-SAYTLAR:

1. 타슈켄트 법과대학_강연자료(러시아본_최종수정)
2. https://www.constituteproject.org/constitution/Republic_of_Korea_1987?lang=en
3. https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=86065&p_country=KOR&p_count=147&p_classification=01.04&p_classcount=6
4. Михалёва И. В. Конституционные основы демократизации республики корея . – 2016 – С.25.
5. Михалёва И. В. Конституционные основы демократизации республики корея . – 2016 –С.25-26
6. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>